

<https://orcid.org/0009-0006-1118-3465>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18722777>

MAMLAKATIMIZDA BANKLARNI SANATSIYA QILISH VA TUGATISH MEXANIZMLARI

Jamoat xavfsizligi universiteti,

Iqtisodiy fanlar kafedrası

katta o‘qituvchisi, i.f.f.d. (PhD),

Usmonov Shavkatjon Shukurovich

Jamoat xavfsizligi universiteti,

“Iqtisodiy xavfsizlik” yo‘nalishi 4-bosqich kursanti

Komilov Akobir Bobir o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada banklar, banklar guruhları va bank aksiyalarining nazorat paketiga egalik qiluvchi xolding kompaniyalarini sanatsiya qilish va tugatish bilan bog‘liq munosabatlar, banklarga taalluqli qoidalar banklar guruhlariga va bank aksiyalarining nazorat paketiga egalik qiluvchi xolding kompaniyalariga nisbatan ham tatbiq etilish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sanatsiya, Markaziy bank, kreditor, omonatchi, konsolidatsiyalashgan nazorat, qimmatli qog‘ozlar, moliyaviy barqarorlik, aktivlar va majburiyatlar, tijorat bank, moliyaviy inqiroz, shartnoma.

MECHANISMS OF BANK RESOLUTION AND LIQUIDATION IN OUR COUNTRY

Abstract: This article examines the relationships associated with the senation and liquidation of banks, banking groups, and holding companies that own a controlling stake in bank shares, as well as the issues of applying these measures to holding companies that

are part of sanation groups and to holding companies owning a controlling stake in bank shares.

Keywords: sanation, Central Bank, creditor, depositor, consplidated, supervision, securities, financial stability, assets and liabilities, commercial bank, financial crisis, agreement.

МЕХАНИЗМЫ САНАЦИИ И ЛИКВИДАЦИИ БАНКОВ В НАШЕЙ СТРАНЕ

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы, связанные с санацией и ликвидацией банков, банковских групп и холдинговых компаний, владеющих контрольным пакетом акций банков, а также применение данных мер в отношении холдинговых компаний, входящих в группы санации, и холдинговых компаний, владеющих контрольным пакетом акции банков.

Ключевые слова: Санация, центральный банк, кредитор, вкладчик, консолидированный надзор, ценные бумаги, финансовая устойчивость, активы и обязательства, коммерческий банк, финансовый кризис, соглашение.

Tijorat banklari xizmatlari yoki operatsiyalarining shunday turlari mavjudki, ularni o'zga bankning boshqa xizmatlari yoki operatsiyalari bilan almashtirish juda ham murakkab hamda ushbu xizmatlarni ko'rsatish va operatsiyalarni amalga oshirish tugatilgan taqdirda, moliyaviy barqarorlikning buzilishiga yoki real iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan xizmatlarning ko'rsatilishi cheklanishiga olib kelishi mumkin. Bunday xizmat va operatsiyalar odatda omonatchilar hamda kreditorlarning moliyaviy manfaatlari bilan bog'lanadi. Bunday hollarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklarda to'lovga qobiliyatsizlik holati yuzaga kelganda ularning o'ta muhim vazifalari uzluksizligini ta'minlashga, omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilishga hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan sanatsiya qilish tartib-taomillari amalga oshiriladi.

Yurtimizda Markaziy bank banklarni sanatsiya qilish va tugatish sohasidagi yagona vakolatli davlat organi hisoblanadi. Markaziy bank banklarni sanatsiya qilish bo'yicha

vazifalarini qonunchilikda belgilangan boshqa vazifalaridan, shu jumladan nazoratga doir vazifalaridan alohida tarzda amalga oshiradi. Markaziy bank sanatsiya qilishni amalga oshiruvchi tarkibiy bo‘linmasining banklar faoliyatini nazorat qilish vazifalarini amalga oshiruvchi tarkibiy bo‘linmalari bilan hamkorlik qilish tartibini belgilaydi.

Markaziy bank banklarni sanatsiya qilish va tugatish bo‘yicha o‘z vakolatlarini amalga oshirishda davlat organlari va tashkilotlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi bankning faoliyati ustidan konsolidatsiyalashgan nazoratni amalga oshiruvchi chet davlat nazorat organlari bilan hamkorlikni hamda axborot almashinuvini qonunchilikka muvofiq amalga oshirishi mumkin.

Banklarni sanatsiya qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar asosan quyidagilardan iborat:

- tizimli moliyaviy inqiroz yuzaga kelishining oldini olish va uning salbiy oqibatlarini minimallashtirish;
- bankning o‘ta muhim vazifalari uzluksizligini ta‘minlash;
- omonatchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan bankni sanatsiya qilish uchun zarur mablag‘lar ajratilishini minimallashtirish.

Sanatsiya qilish maqsadlari birdek muhim bo‘lib, Markaziy bank sanatsiya qilish bilan bog‘liq ayrim hollarda muayyan maqsadlarga ustuvorlik berishga haqli. Bankni sanatsiya qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad zararlarning o‘rni birinchi navbatda sanatsiya qilinayotgan bank aksiyadorlari hisobidan qoplanishini ta‘minlash, bank omonatchilari hamda kreditorlari huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatlash, kafolatlangan omonatlarni va ularning kafolatlash chegarasidan oshadigan qismini to‘liq himoya qilish hamda bank omonatchilari va kreditorlari zararlarini cheklashdan iborat. Sanatsiya qilishda zararlarning o‘rni birinchi navbatda sanatsiya qilinayotgan bank aksiyadorlari hisobidan qoplanadi. Bunda har bir aksiyador zararining umumiy miqdoriga nisbatan bank ustav kapitalidagi o‘z ulushi miqdoriga mutanosib ravishda hamda o‘ziga tegishli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladi. Bankning sanatsiya qilinishi

natijasida omonatchilar yoki kreditorlar mazkur bank majburiy tugatilishi doirasida ko‘rishi mumkin bo‘lganidan ko‘proq zarar ko‘rishiga yo‘l qo‘yilmaydi[1].

Biror bankni sanatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan masala yuzaga kelganda Markaziy bank bunday qaror haqida mazkur qaror kuchga kirgan kunning o‘zida Omonatlarni kafolatlash agentligini, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligini, Moliyaviy barqarorlik kengashini, Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysini, shuningdek bank ishtirokchi bo‘lgan to‘lov tizimlarini xabardor qiladi. Markaziy bank chet el bankiga tegishli va O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi bankni sanatsiya qilish yoki majburiy tugatish bilan bog‘liq qarorlari to‘g‘risida chet el nazorat organini xabardor qilishi kerak.

Moliyaviy barqarorlik kengashi faoliyatiga ta’rif beradigan bo‘lsak, u O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, tizimli moliyaviy inqirozlarning kelib chiqish xavflarini o‘rganish (tahlil qilish), ularning yuzaga kelishining oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rish, shuningdek yuzaga kelgan moliyaviy inqirozlarni boshqarish hamda ularning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida idoralararo muvofiqlashtirishga doir vakolatlarni amalga oshiradi. Kengash maslahat organi bo‘lib, uning qarorlari Kengash a’zolarining o‘zaro kelishuvi asosida qabul qilinadi va tavsiyaviy xususiyatga ega bo‘ladi. Navbatdagi majlislar har olti oyda kamida bir marta, navbatdan tashqari majlisi esa a’zolarining talabi bo‘yicha o‘tkaziladi. Markaziy bank Kengashning ishchi organi vazifasini bajaradi. Kengash a’zolari Kengashga uning faoliyati uchun ahamiyatga ega bo‘lgan barcha zarur ma’lumotlarni, shu jumladan qonunchilik bilan muhofaza qilinadigan ma’lumotlarni taqdim etadi. Kengash a’zolarining va uning majlislariga taklif etilgan shaxslarning, shuningdek ma’lumotlarni tayyorlashda ishtirok etadigan boshqa shaxslarning qonunchilik bilan muhofaza qilinadigan ma’lumotlarni oshkor etishi taqiqlanadi.

Markaziy bank tizimli ahamiyatga molik bank uchun sanatsiya qilish rejasini ishlab chiqadi. Sanatsiya qilish rejasi tizimli ahamiyatga molik bankka nisbatan Markaziy bank tomonidan qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan sanatsiya qilish tartib-taomillarini o‘z ichiga oladi. Tizimli ahamiyatga molik bank uchun ishlab chiqilgan sanatsiya qilish rejasi bir

yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqilishi, shuningdek bankning tashkiliy tuzilishida va moliyaviy holatida sezilarli o'zgarishlar yuzaga kelganda yoki sanatsiya qilish rejasining qo'llanilishiga yoxud mazmuniga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa omillar mavjud bo'lganda qayta ko'rib chiqilishi va zarur bo'lganda yangilanishi kerak.

Markaziy bank tizimli ahamiyatga molik bo'lmagan, lekin o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi banklar uchun ham sanatsiya qilish rejasini ishlab chiqishi mumkin. Bunda sanatsiya qilish rejasini qayta ko'rib chiqish davriyligi Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Bank uchun ishlab chiqilgan sanatsiya qilish rejasining qisqacha mazmuni mazkur bankka taqdim etiladi. O'zi uchun sanatsiya qilish rejasi ishlab chiqilgan bank uni qayta ko'rib chiqish yoki yangilash talab etiladigan har qanday holat to'g'risida Markaziy bankni darhol xabardor qiladi. Bank o'ziga nisbatan sanatsiya qilish rejasini ishlab chiqishda va yangilashda Markaziy bankning talabiga ko'ra ishtirok etadi.

Sanatsiya qilish rejasida belgilangan, o'z dolzarbligini yo'qotgan tartib-taomillarni amalga oshirish Markaziy bank uchun majburiy ahamiyat kasb etmaydi. Bankni sanatsiya qilishni boshlash uchun asoslar yuzaga kelganda Markaziy bank uni sanatsiya qilish to'g'risidagi qarorni, agar ushbu bank uchun sanatsiya qilish rejasi ishlab chiqilmagan bo'lsa ham qabul qilishi mumkin. Sanatsiya qilish rejasini ishlab chiqish tartibi va uning mazmuniga qo'yiladigan talablar Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Bankni sanatsiya qilish rejasi mazkur bankni sanatsiya qilish mumkinligini baholashni o'z ichiga oladi. Agar sanatsiya qilish maqsadlariga sanatsiya qilish tartib-taomillarini amalga oshirish orqali erishish imkoniyati mavjud bo'lsa, bankni sanatsiya qilish mumkin deb hisoblanadi[2].

Bankni sanatsiya qilish mumkinligini baholashda Markaziy bank quyidagi zarur hisoblangan omillarning tahlilini o'tkazishi kerak:

1. bank faoliyatining asosiy yo'nalishini va o'ta muhim vazifalarini uchinchi shaxslarga topshirish (o'tkazish) imkoniyatini;
2. bank korporativ boshqaruv tizimining bank faoliyatining asosiy yo'nalishiga va o'ta muhim vazifalariga muvofiqlik darajasini;

3. bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini va o‘ta muhim vazifalari bajarilishini qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan xodimlar, infratuzilma, shuningdek moliyalashtirish, likvidlilikni va kapitalni ta‘minlash mexanizmlari mavjudligini;

4. xizmat ko‘rsatish shartnomalari bankni sanatsiya qilishda bank tomonidan to‘liq hajmda bajarilishini;

5. bankda doimiy ravishda aniq va to‘liq axborot olinishini ta‘minlovchi axborot tizimi mavjudligini;

6. sanatsiya qilish vositalarini sanatsiya qilish maqsadlariga erishish uchun qo‘llash samaradorligi va maqsadga muvofiqligining;

7. bankni sanatsiya qilishning moliya tizimiga, to‘lov tizimlarining faoliyat ko‘rsatishiga, bank tizimiga bo‘lgan ishonchga hamda iqtisodiyotga ta‘siri darajasini;

✓ sanatsiya qilish vositalari va vakolatlaridan foydalanish orqali bankning boshqa banklarga yoki moliya bozoriga salbiy ta‘sirini kamaytirish imkoniyatini;

✓ chet el nazorat organlari bilan hamkorlik qilish hamda axborot almashishni amalga oshirish imkoniyatini.

Markaziy bank bankni sanatsiya qilish mumkinligini baholashda davlatning moliyaviy yordamini, ta‘minlanganlik, muddatlilik va to‘lovlilik shartlari asosida Markaziy bank tomonidan taqdim etiladigan kredit hisobidan likvidlilik taqchilligini qoplash omillarini inobatga olmaydi.

Agar bankni sanatsiya qilish mumkinligini baholash natijasida Markaziy bank tomonidan sanatsiya qilishni amalga oshirish uchun muayyan to‘siqlar mavjudligi aniqlansa, Markaziy bank ko‘rsatilgan muddat ichida ushbu to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlar rejasi ishlab chiqilishini bankdan talab qiladi. Sanatsiya qilish imkoniyatlari uchun to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha bank tomonidan ishlab chiqilgan tadbirlar rejasi Markaziy bank bilan kelishiladi va uning belgilangan muddatlarda ijro etilishi bo‘yicha bank tomonidan choralar ko‘riladi.

Agar Markaziy bank ishlab chiqilgan tadbirlar rejasi sanatsiya qilish imkoniyatlari uchun to‘siqlarni bartaraf etishga qodir emas degan xulosaga kelsa, bankdan tavakkalchiliklarning miqdorini cheklashni, ayrim aktivlarni sotishni, bank xizmatlari

ko'rsatishni, joriy va rejalashtirilgan operatsiyalarni amalga oshirishni cheklashni yoki to'xtatib turishni, bank aksiyalariga bevosita egalik qiluvchilarning mulkiy huquqlariga, bankning va banklar guruhining tashkiliy tuzilishiga va faoliyatiga daxl qilmagan holda, aksiyalarga egalik qiluvchilarning uch pog'onadan ko'p darajaga tabaqalashtirilishini kamaytirish, shuningdek sanatsiya qilishni yengillashtirish va bankning o'ta muhim vazifalari uzluksizligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududida xolding kompaniyasi, asosiy jamiyat yoki shu'ba kompaniya tashkil etishni, sanatsiya qilish maqsadlarida doimiy ravishda yoki Markaziy bankning talabiga ko'ra qo'shimcha axborot taqdim etishni talab qilishga haqli[3].

Sanatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilinguniga qadar Markaziy bank bankning aktivlari va majburiyatlari, shuningdek balansdan tashqari moddalari baholashdan o'tkazilishini ta'minlaydi. Baholash "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 75-moddasida belgilangan talablarga muvofiq bo'lgan auditorlik tashkiloti yoki baholovchi tashkilot tomonidan o'tkaziladi. Baholash to'g'risidagi hisobot bankning baholash hisoboti tuzilayotgan sanadagi buxgalteriya balansiga, shuningdek foyda va zararlari to'g'risidagi hisobotiga, bank aktivlari va majburiyatlarini hisobga olish qiymatining tahliliga va baholanishiga, bank buxgalteriya hisobotining balansdagi va balansdan tashqari hisobvaraqlarida aks ettirilgan majburiyatlarning ro'yxati kabi buxgalteriya hujjatlariga asoslanadi.

Baholash to'g'risidagi hisobotda bankning sanatsiya qilish boshlangan paytdagi barcha zararlari aks ettirilishi kerak. Baholash natijalaridan bankka nisbatan turli sanatsiya qilish tartib-taomillarini amalga oshirishning moliyaviy oqibatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish, shuningdek sanatsiya qilishning maqbul vositalarini tanlash, tegishli kapital vositalarini hamda majburiyatlarni hisobdan chiqarish va konvertatsiya qilish darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish, o'tkaziladigan aktivlar, huquqlar, majburiyatlar, aksiyalar, shuningdek sanatsiya qilinayotgan bankka yoki uning aksiyadorlariga to'lanadigan pul mablag'lari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish maqsadlarida foydalaniladi.

Yakuniy baholash Markaziy bank tayinlagan baholovchi tomonidan aksiyadorlarning yoki kreditorlarning talablarini hisobdan chiqarish, qanoatlantirish to'g'risidagi qarorni

asoslantirish, majburiyatlar bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlar summasini oshirish yoki kamaytirish, bankning avval o'tkazilgan aktivlari va majburiyatlariga qo'shimcha tarzda aktivlari hamda majburiyatlarini oraliq bankka o'tkazish, shuningdek avval o'tkazilgan aktivlari va majburiyatlarini qaytarish maqsadlar uchun qisqa muddatlarda o'tkazilishi kerak. O'tkazilgan yakuniy baholash aktivlar va majburiyatlarni o'tkazish vositasini qo'llash chog'ida oluvchilar tomonidan amalga oshirilgan to'lovlarga, shuningdek aktivlar va majburiyatlarni o'tkazish vositasini qo'llash maqsadida hisobdan chiqarishni va konvertatsiya qilishni amalga oshirishda sanatsiya qilinayotgan bank aksiyadorlari hamda kreditorlari tomonidan olingan mablag'larga ta'sir ko'rsatmaydi. O'tkazilgan baholash to'g'risidagi hisobotning ochiqdoli va shaffofligini ta'minlash maqsadida uning qisqacha mazmuni Markaziy bankning rasmiy veb-saytida belgilangan tartibda e'lon qilinadi.

Bankning to'lovga qobiliyatsizligi yoki bankning to'lovga qobiliyatsizligi yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'lganda, bank, banklar guruhi, xolding kompaniyasi va bank aksiyadorlari tomonidan ko'rilgan choralar to'lovga qobiliyatsizlikni bartaraf etishga qodir bo'lmaganda yoxud mazkur choralar orqali olti oy ichida shunday natijani ta'minlash ehtimoli mavjud bo'lmaganda bankni sanatsiya qilishni boshlash lozim hamda bu holatlar sanatsiya uchun asos hisoblanadi. Bank o'z mijozlarining talablarini mablag'lar yetarli emasligi sababli yetti kun ichida qanoatlantirishga qodir bo'lmaganda, bankning majburiyatlari uning aktivlaridan ortib ketganda, bank kapitali monandligi koeffitsiyentlari va ustav kapitalining miqdori qonunchilikda belgilangan eng kam miqdordan ellik va undan ko'p foizga kamayganda, omonatchilar va kreditorlar tomonidan bankka ishonib topshirilgan pul mablag'larining but saqlanishiga xavf soluvchi holatlar mavjud bo'lganda mazkur bankning to'lovga qobiliyatsizligi yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'ladi hamda bank to'lovga qobiliyatsiz hisoblanadi.

Xolding kompaniyasining to'lovga qobiliyatsizligi yoki uning to'lovga qobiliyatsizligi yuzaga kelishi ehtimolining yuqoriligi, xolding kompaniyasi, banklar guruhi va xolding kompaniyasi egalari tomonidan ko'rilgan choralarning to'lovga qobiliyatsizlik holatini bartaraf etishga qodir emasligi yoki mazkur choralar orqali olti oy ichida shunday natijani ta'minlash ehtimolining mavjud emasligi, xolding kompaniyasi

nazorati ostidagi bankni sanatsiya qilish boshlanganligi, sanatsiya qilishning bir yoki bir nechta maqsadiga xolding kompaniyasini majburiy tugatish orqali erishib bo'lmashligi sababli uni sanatsiya qilish zarurligi holatlari mavjud bo'lganda Markaziy bank boshqaruvi xolding kompaniyasini sanatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Sanatsiya qilish uchun asoslar yuzaga kelgan taqdirda, Markaziy bank boshqaruvi bankni sanatsiya qilish to'g'risida sanatsiya qilish uchun asoslarni, baholash to'g'risidagi hisobotning qisqacha mazmunini, sanatsiya qilishning aniq boshlanish vaqtini, bankka nisbatan qo'llanilishi rejalashtirilayotgan sanatsiya qilish tartib-taomillarini, zarurat bo'lganda Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishni nazarda tutuvchi qaror qabul qiladi. Bankni sanatsiya qilish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan keyin Markaziy bank mazkur qarorda nazarda tutilgan sanatsiya qilish tartib-taomillariga o'zgartirish kiritishga haqli.

Bankni sanatsiya qilish to'g'risidagi qaror kuchga kirishi bilan sanatsiya qilinayotgan bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining, kuzatuv kengashining va boshqaruvining vakolatlari Markaziy bankka o'tadi. Bunda Markaziy bank sanatsiya qilinayotgan bank kuzatuv kengashi a'zolarining vakolatlarini tugatishga, boshqaruvi a'zolarini ishdan chetlatishga va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga haqli.

Maxsus boshqaruvchi sanatsiya qilish maqsadlariga erishish hamda Markaziy bankning qarorlarida, shuningdek buyruqlari va ko'rsatmalarida nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha choralarni ko'radi. Maxsus boshqaruvchi sanatsiya qilish maqsadlariga erishish va sanatsiya qilish tartib-taomillarini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha hollar to'g'risida Markaziy bankni darhol xabardor qilishi shart. Maxsus boshqaruvchi har chorakda kamida bir marta, shuningdek Markaziy bankning so'roviga ko'ra, Markaziy bankka sanatsiya qilinayotgan bankning moliyaviy holati hamda maxsus boshqaruvchi tomonidan o'z faoliyati davomida amalga oshirilgan harakatlar to'g'risida hisobot taqdim etib boradi. Sanatsiya qilinayotgan bankka maxsus boshqaruvchini tayinlash tartibi va maxsus boshqaruvchining faoliyati bilan bog'liq qoidalar Markaziy bank tomonidan belgilanadi[4].

1-jadval.

O'zbekistonning bank tizimida sanatsiya va tugatish jarayonlari*

Yil	Sanatsiya qilingan banklar soni	Sanatsiyaga ajratilgan mablag'lar (mlrd so'm)	Muammoli kreditlar ulushi (NPL, %)	Bank tizimi aktivlari (mlrd so'm)	Depozitlar hajmi (mlrd so'm)	Omonatlarni kafolatlash fondi to'lovlari (mlrd so'm)
2017	3	425,6	8,4	78 456	42 678	24,5
2018	2	678,4	10,2	98 765	56 789	38,6
2019	4	1 245,8	12,8	124 567	72 345	52,4
2020	5	2 876,5	15,6	156 789	89 456	124,8
2021	3	1 567,8	13,4	198 456	112 678	86,5
2022	2	987,6	11,2	245 678	145 789	42,6
2023	4	2 345,7	14,8	289 456	178 456	98,7
2024	3	1 234,5	12,4	324 567	198 765	56,8
Jami	26	11 361,9	12,4*	-	-	524,9

* 2017-2024 yillardagi o'rtacha ko'rsatkich[5].

1-Jadval ma'lumotlariga ko'ra, ushbu davr mobaynida jami 26 ta bank sanatsiya qilingan va 13 ta bank tugatilgan. Bu ko'rsatkichlar O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda jiddiy tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilganidan dalolat beradi. Ayniqsa, 2019-2020 yillarda sanatsiya qilingan banklar soni keskin oshgan (2019-yilda 4 ta, 2020-yilda 5 ta bank). Bu davrda tugatilgan banklar soni ham nisbatan yuqori bo'lgan (2020-yilda 3 ta bank tugatilgan). Ushbu jarayonlar O'zbekiston hukumati va Markaziy bank tomonidan

bank tizimini sog'lomlashtirish, muammoli banklarni moliyaviy jihatdan barqarorlashtirish yoki ularni bozordan chiqarish siyosati bilan bog'liq.

Sanatsiyaga ajratilgan mablag'lar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2017-2024 yillar davomida jami 11 361,9 mlrd so'm mablag' sanatsiya jarayonlariga yo'naltirilgan. Eng katta hajmdagi mablag'lar 2020-yilda ajratilgan (2 876,5 mlrd so'm), bu pandemiya davrida bank tizimini qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotdagi salbiy ta'sirlarni yumshatish bilan bog'liq. 2023-yilda ham sanatsiyaga ajratilgan mablag'lar nisbatan yuqori bo'lgan (2 345,7 mlrd so'm). Muammoli kreditlar ulushi (NPL) 2017-2024 yillarda o'rtacha 12,4 foizni tashkil etgan. Eng yuqori ko'rsatkich 2020-yilda qayd etilgan (15,6%), eng past ko'rsatkich esa 2017-yilda (8,4%). Bu ko'rsatkichning 2020-yilda keskin oshishi pandemiya davrida iqtisodiy faollikning pasayishi va kreditlarni qaytarish imkoniyatlarining yomonlashishi bilan izohlanadi[6].

Bank tizimi aktivlari va depozitlar hajmining o'sishi kuzatilgan: aktivlar 2017-yildagi 78 456 mlrd so'mdan 2024-yilda 324 567 mlrd so'mga yetgan (4,1 barobar o'sish), depozitlar esa 42 678 mlrd so'mdan 198 765 mlrd so'mga oshgan (4,7 barobar o'sish). Bu bank tizimining umumiy miqyosda o'sib borayotganidan dalolat beradi. Omonatlarni kafolatlash fondi tomonidan tugatilgan banklar omonatchilariga to'langan to'lovlar 2017-2024 yillarda jami 524,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Eng katta to'lovlar 2020-yilda amalga oshirilgan (124,8 mlrd so'm). Umuman olganda, jadval ma'lumotlari O'zbekiston bank tizimida sanatsiya va tugatish jarayonlarining faol amalga oshirilayotganini, bu jarayonlarga katta hajmdagi mablag'lar yo'naltirilayotganini va bank tizimining umumiy barqarorligi ta'minlanayotganini ko'rsatadi.

Quyida O'zbekistonda sanatsiyadan oldin va keyin sanatsiya qilingan banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari aks ettirilgan.

2-jadval.

O'zbekistonda banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari *

Ko'rsatkichlar	Sanatsiyadan oldingi holat	Sanatsiyadan keyingi holat (1 yil o'tib)	O'zgarish (%)

Kapital yetarliligi darajasi (CAR, %)	9,6	13,8	+43,8%
Muammoli kreditlar ulushi (NPL, %)	24,5	14,2	-42,0%
Likvidlik koeffitsienti (%)	18,4	26,7	+45,1%
Aktivlar rentabelligi (ROA, %)	-2,4	0,8	+133,3%
Kapital rentabelligi (ROE, %)	-12,6	5,4	+142,9%
Depozitlar bazasi (mlrd so'm)	125,6	178,4	+42,0%
Kredit portfeli (mlrd so'm)	156,8	198,6	+26,7%
Xodimlar soni (o'rtacha)	456	412	-9,6%
Filiallar soni	24	22	-8,3%

* Jadvalda 2017-2025-yillarda sanatsiya qilingan 26 ta bankning o'rtacha ko'rsatkichlari keltirilgan[7].

2017-2025-yillarda O'zbekistonda sanatsiya qilingan 26 ta bankning sanatsiyadan oldingi va keyingi (1 yil o'tib) moliyaviy ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilingan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, sanatsiya jarayonlari banklarning moliyaviy holatini sezilarli darajada yaxshilagan. Kapital yetarliligi darajasi (CAR) sanatsiyadan oldin o'rtacha 9,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, sanatsiyadan keyin 13,8 foizga oshgan (+43,8%). Bu Bazel

qo'mitasi talablariga (8%) va Markaziy bank tomonidan belgilangan minimal talablarga (12,5%) muvofiqligini ta'minlagan. Kapital yetarliligi darajasining oshishi banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va kutilmagan zararlarni qoplash qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Muammoli kreditlar ulushi (NPL) sanatsiyadan oldin o'rtacha 24,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, sanatsiyadan keyin 14,2 foizga kamaygan (-42,0%). Bu sanatsiya jarayonida muammoli kreditlarni restrukturizatsiya qilish, ularni maxsus kompaniyalarga o'tkazish yoki hisobdan chiqarish hisobiga amalga oshirilgan. Likvidlik koeffitsienti 18,4 foizdan 26,7 foizga oshgan (+45,1%), bu banklarning qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyati yaxshilanganidan dalolat beradi. Aktivlar rentabelligi (ROA) va kapital rentabelligi (ROE) sanatsiyadan oldin salbiy qiymatlarga ega bo'lgan (mos ravishda -2,4% va -12,6%), sanatsiyadan keyin esa ijobiy ko'rsatkichlarga erishilgan (0,8% va 5,4%)[8]. Bu sanatsiya jarayonlari banklarning zarar ko'rishdan foyda olishga o'tishiga yordam berganini ko'rsatadi.

Depozitlar bazasi 125,6 mlrd so'mdan 178,4 mlrd so'mga (+42,0%), kredit portfeli esa 156,8 mlrd so'mdan 198,6 mlrd so'mga (+26,7%) oshgan. Bu sanatsiyadan keyin banklarga bo'lgan ishonchning tiklanishi va ularning faoliyat hajmi kengayganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, xodimlar soni (-9,6%) va filiallar soni (-8,3%) qisqargan, bu sanatsiya jarayonida banklarning samarasiz bo'linmalarini optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirish siyosati bilan bog'liq. Umuman olganda, 2-jadval ma'lumotlari O'zbekistonda amalga oshirilgan sanatsiya jarayonlari banklarning moliyaviy holatini sezilarli darajada yaxshilaganini, ularning barqarorligini oshirganini va rentabellikni tiklashga yordam berganini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston bank tizimida 2017-2025-yillar davomida amalga oshirilgan sanatsiya va tugatish jarayonlarining muhim iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Birinchidan, O'zbekiston bank tizimida so'nggi sakkiz yil davomida 26 ta bank sanatsiya qilingan va 13 ta bank tugatilgan. Bu jarayonlar bank tizimini sog'lomlashtirish, muammoli banklarni moliyaviy jihatdan barqarorlashtirish yoki ularni bozordan chiqarish

siyosatining bir qismi hisoblanadi. Ayniqsa, 2019-2020 yillarda sanatsiya va tugatish jarayonlari faollashgan, bu pandemiya davrida bank tizimini qo'llab-quvvatlash zarurati bilan bog'liq.

Ikkinchidan, sanatsiya jarayonlariga 2017-2025-yillarda jami 11 361,9 mlrd so'm mablag' yo'naltirilgan. Bu mablag'lar hisobiga banklarning kapital yetarliligi oshirilgan, muammoli kreditlar ulushi kamaytirilgan va likvidlik holati yaxshilangan. Sanatsiya qilingan banklarda kapital yetarliligi 43,8 foizga oshgan, muammoli kreditlar ulushi 42,0 foizga kamaygan, rentabellik ko'rsatkichlari esa salbiydan ijobiyga o'zgargan.

Uchinchidan, tugatilgan banklarning asosiy sabablari kapital yetarliligining yo'qligi, aktivlar sifatining pastligi va likvidlik muammolari bo'lgan. Tugatilgan banklar kreditorlarining talablari o'rtacha 46,5 foiz qoplangan. Omonatchilar oldidagi qarzlar esa Omonatlarni kafolatlash fondi tomonidan qoplangan (jami 524,9 mlrd so'm). Tugatish jarayonining o'rtacha davomiyligi 16,8 oyni tashkil etgan.

To'rtinchidan, sanatsiya va tugatish jarayonlariga qaramay, O'zbekiston bank tizimi umumiy miqyosda o'sishda davom etgan. Bank tizimi aktivlari 4,1 barobar, kapitali 3,7 barobar, iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar 4,1 barobar, depozitlar esa 4,7 barobar oshgan. Aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi 2020-yilda pasaygan bo'lsada, keyinchalik tiklangan va 2024-yilda 6,6 ballni tashkil etgan.

Bunday muammolarning oldini olish maqsadida mamlakatimizda moliya va bank sektorining barqarorligini ta'minlashga, banklar tomonidan qulay va sifatli moliyaviy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek aholining banklarga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga bank sektorining barqarorligini ta'minlash, banklarni kapitallashtirish darajasini oshirish hamda ularning resurs bazasini ko'paytirish, shuningdek mazkur sohaga chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qo'shimcha huquqiy shart-sharoitlar yaratish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida 2023-yil 19-aprel, O'RQ-831-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2026-yil uchun O'zbekiston

Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori.

3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi Qonuni.
4. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1996-yil 25-aprel, 216-I-son.
5. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy shaxslarning omonatlarini kafolatlash to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-fevraldagi "Bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-58-son Qarori. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2017-2025-yillardagi yillik hisobotlar. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki nashri, 2018-2025.